

TONG yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-YIL
24-OKTABR
N:43
(66844)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiga boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

HAMMAMIZNING GAZETAMIZ!

Qadrli bolalar!
Mamlakatimizda bolalar nashrlariga «Obuna - 2012» mavsumi boshlandi. Shu jumladan, «Tong yulduzi» gazetasiga ham 2012-yil uchun obuna bo'lishingiz mumkin. Gazetangizda kelgusi yilda ham yanada qiziqarli, rang-barang, mazmunli, dolzarb maqola va xabarlar, she'r, ertak va hikoyalar chop etiladi. U sizga eng yaqin do'st, maslahatchi vazifasini o'taydi.

«Obuna - 2012» mavsumini yuksak darajada o'tishini ta'minlab, «Tong yulduzi», «Klass», «Gulxan», «G'uncha» nashrlariga

eng ko'p obunani uyushtirgan maktab, litsey, kollejlarga «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan quyidagi mukofotlar ajratildi:

1. Maktab, litsey va kollejlarga:

1-o'rin - 2 dona kompyuter;

2-o'rin - 3 dona televizor;

3-o'rin - 3 dona DVD pleyer.

2. «Obuna - 2012»ni tashkil etishda faol ishtirok etganlarga:

10 dona diktofon.

**Bu ezgu ishda barchangizga
omad yor bo'lsin!**



**SALOMATLIGING
TO'RA
QO'LLARINGDA**



Suratda: Tadbirdan lavhalar

G'AROYIB TADBIR SIRI

Kuni kecha poytaxtimizning Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida bolajonlar yana bir g'aroyib tadbirning guvohi bo'ldilar. Bu bayramning nomini aytsam, hayron bo'lishingiz mumkin. Har holda, men uchun yangilik bo'ldi. Siz ham yon daftaringizga qayd qilib qo'ying: 15-Oktabr - «Butunjahon qo'l yuvish kuni» sifatida nishonlanar ekan. Bu tadbir ilk bor BMT tomonidan 2008-yilni «Sanitariya yili» deb e'lon qilinishi munosabati bilan o'tkazilgan. Bugunga kelib, dunyodagi 80 dan ortiq davlatlar har yili bu kunni zo'r tantana bilan nishonlaydilar.

Davomi 2-beida



«NANO» NIMA DEGANI?

Tilimizga yangi so'zlar kirib kelar ekan, ularning ma'nosini bilib olishingiz kerak.

O'tgan XX asr mikroelektronikasi asosan kremniy va uning birikmalaridan foydalanishga asoslangan edi. XXI asr esa butunlay yangicha yondashuvni talab etmoqda. Hozirda nanomateriallar ishlab chiqarishga e'tibor katta. Xo'sh, bolalar, «Nano» nima degani? Bu so'z «milliard-dan bir» degan ma'noni anglatadi. Tasavvur qiling: odam sochining diametri 8000 nanometr ga teng ekan. Nano, demak, juda kichik deyish mumkin.

«BARLOS NAHRI» QAYERDA?



Nahr, ya'ni kanal qazdirib, suv chiqarish, obodonchilik ajdodlarimizning sevimli ishlaridan biri bo'lgan. Ma'lumki, Amir Temur bobongiz Ozarbayjonda Boylaqon shahrini qayta qurdirgan. Araj daryosidan kanal qazdirib, suv keltirgan. Ana shu kanal «Barlos nahri» deb atalgan. Daryo Boylaqon shahri yaqinidagi Sarjabil degan joyga, Parkamar qabri yonigacha yetgan. Uzunligi 60-70 kilometrni, eni – 10, chuqurligi 4 metrni tashkil etgan. Bunday katta kanalni qazishda necha bahodirlar, Farhodlar ishtirok etganini bir tasavvur qilib ko'ring-chi!

O-O, BIFSHTEKS?!

- Hasan, bifshteks yeymizmi?
- Mayli, yeymiz.



- Bifshteks nima degani, bilasanmi?

- Yo'q, bilim a y m a n, «Tong yulduzi» ga qo'ng'iroq qilsak, ma'lumot beradi.

Ikki o'rtoq qo'ng'iroq'idan so'ng...

«Bif» degani, ingliz tilida mol go'shtini anglatadi. «Shteks» – nemis pazandasining ismi. Birinchi bo'lib bu taomni ana shu inson tayyorlagan.

SHAHNOZA tayyorladi

G'AROYIB TADBIR SIRI

Bog'da o'tkazilgan bu yilgi «Salomatliging – toza qo'llaringda» aksiyasi Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ)ning loyihasi doirasida O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Xalq ta'limi vazirligi hamkorligida o'tkazildi. Loyihaga ko'ra, uch asosiy maqsad oldinga surilgan edi:

– mavsumiy gripp kasalligi davrida zarur sanitariya qoidalariga rioya qilish;

– qo'l yuvish gigiyenasi;

– og'iz tozaligi gigiyenasi.

Bizningcha, tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsadlarga to'la-to'kis erishildi.

Bunga biz tadbirda bolalar

uchun maxsus tayyorlangan musiqiy dasturlar, qog'oz va asfaltga bolalar tomonidan chizilgan rasmlar, «Tom va Tomchivoy» kabi ertak qahramonlarining tozalikka oid viktorina savollariga bolalar tomonidan berilgan puxta javoblarni eshitganda, yana bir bor amin bo'ldik.



Ayrimlar hayron bo'lishi mumkin. Iye, qo'l yuvmaydigan odam ham bo'ladimi, deb. Bor ekan! Dangasa va behafsala bolalar

ko'pincha qo'l yuvishni «unutib» qo'yarkanlar, bu esa ko'plab kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ayrim davlatlarda suv tanqisligi bois, ko'pchilik yuz-qo'lini doim ham yuvib yurish imkoniga ega emas ekan. Bizning xonadonlarimizda esa sovuq va issiq suvlar muhayyo. Istaganingizcha foydalanishingiz mumkin. Ammo har narsaning me'yori, o'lchami borligini, shu qatorda, bebaho boyligimiz suvning ham bitmas-tugamas ne'mat emasligini unut-mang. Siz ermak uchun bir-birinizga suv sepib o'ynayotganingizda, dunyoning qaysidir burchagida tengdoshingiz yuzini yuvish u yoqda tursin, hatto ichishga ham suv topolmayotganligini unut-mang.

Munira ABDULLAYEVA.

Suratlar muallifi:
Burhon RIZOQULOV

BEBAHO BOYLIK

Kuni kecha butun yurtimizda muqaddas qadriyatimiz sanalgan ona tilimiz qonuniy maqomga ega bo'lgan kun katta tantana bilan nishonlandi.

O.ORIPOV olgan surat



Shuni alohida ta'kidlash kerakki, «Davlat tili haqida»gi qonunimiz jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan barcha talablarga to'liq javob bera olishi bilan ham ahamiyatlidir.

Mustaqillik yillarida ona tilimizni rivojlantirish, tom ma'noda, milliy qadriyatga aylantirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Ha, ona tilimiz bebaho boyligimizdir. Uni asrash va rivojlantirish millat ziyolilari uchun hamisha eng muhim vazifa bo'lib kelgan. So'nggi yillarda bu borada olib borilayotgan ishlar ko'lami yanada kengayib bormoqda. O'zbek tilini ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlar, tadqiqotlar salmog'i ortdi. Tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblari, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar chop etilishi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Bularning bari millat barhayotligining ramzi bo'lgan ona tilini asrash va uni yanada boyitishning yuksak namunasidir.

Muhammadjon MAHMUDOV,
mehnat faxriysi

Qadrli o'quvchilar, 13-Oktabr – «Xalqaro tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish kuni» sifatida keng nishonlanishidan xabaringiz bormi? Butun dunyoda favqulodda vaziyatlarda qanday harakatlanish, bunday holatlarda aholining xavfsizligini ta'minlash bugungi kunda dolzarb masalalar qatoridan joy olgan. Kuni kecha Favqulodda vaziyatlar vazirligida shu sana munosabati bilan matbuot xodimlari ishtirokida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.



O'ZINGIZNI, YAQINLARINGIZNI ASRANG!



Soha mutaxassislari bergan ma'lumotlarga ko'ra, respublikamiz hududi seysmik jihatdan faol hisoblanadi. Shu bois, favqulodda vaziyatlar xavfi tug'ilganda, tegishli profilaktik tadbirlarni o'tkazish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Muntazam ravishda baland tog'li hududlardagi qor qatлами zaxiralarini o'rganish, qor ko'chkisi xavfini aniqlash, shuningdek, toshish xavfi mavjud ko'llar holatini nazorat qilib borish turli

ofatlarning oldini olib kelmoqda. Respublikamizdagi uyali telefon operatorlari orqali ob-havoning keskin o'zgarishi yoki favqulodda vaziyatlar sodir bo'lishi ehtimoli haqidagi xabarlar berib borilishi ham yaxshi samara bermoqda. Ayni chog'da, vazirlikning turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni keng yo'lga qo'ygani ham diqqatga sazovordir.

Shuningdek, BMTning O'zbekiston Respublikasidagi Bolalar fondi vakolatxonasi bilan birgalikda qator tadbirlar o'tkazib kelinayotgani ham alohida ahamiyatga molikdir. Mazkur anjumanda «YUNISEF» Xalqaro tashkiloti tomonidan taqdim etilgan to'rtta «Damas» avtomobili Andijon, Surxondaryo, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashi shubhasiz.

O'z muxbirimiz

KICHIK TARJIMON

Aziz bolalar, gazeta sahifalarida iqtidorli o'quvchilar bilan bo'lgan suhbatlarni kuzatib borayotgan bo'lsangiz kerak. Unda tengdoshlaringizning har sohada erishayotgan yutuqlari haqida ma'lumot berib borilayotgan edi. Sahifamizning navbatdagi mehmoni yosh bo'lishiga qaramay, chet tilini o'z ona tilidek bilib, ustozlari olqishiga sazovor bo'lmoqda.

An'anamizga ko'ra, suhbatimiz avvalida Sayyoraning bolaligi, o'qigan maktabi, ustozlari bilan qiziqdik. U o'zining bolaligi haqida maroq bilan so'zlay ketdi:

– Bolaligimning betakror damlarini Jizzaxning qoq markazida o'tkazganman. Hanuz yodimda, quvonchdan yuragim yorilgudek bo'lib, mitti yelkamga kitoblarim to'la sumkamni osib, tengdoshlarim qatori maktab tomon oshiqardim... Meni o'ziga chorlovchi o'sha qadrdon maktab Haydarbek Abdujabborov nomli 9-o'rta ta'lim maktabi edi. Shu maskanda ilm olib, ustozlarim mehridan qonib, 9-sinfni

tamomladim. So'ngra, jona-jon maktabim, sevimli ustozlarim, sinfdoshlarim bilan xayrlashib, poytaxt tomon yo'l oldim.

– Sayyora, sizni «Kichik tarjimon», deb atashar ekan...

– Meni bunday atashlarining sababi bor. Maktabda o'qib yurgan kezlirim, Jizzaxdagi o'quv markazida us-tozim Dilshod aka O'rinbo-yevdan ingliz tilini chuqur o'rgangandim va tengdoshlarim orasida birinchilardan bo'lib tarjimonlik sertifikatini qo'lga kiritdim. Ingliz tilini mukammal o'rganganim bois, do'st-larimga tarjimada yordam-lashib yuborardim. Bundan xursand bo'lgan ota-onam

faxr bilan meni «Kichik tarjimonim» deya erkalamishdi.

Mana uch yildirki, aka-demik litseyda ta'lim olayman. Ilmning cheksizligini anglaganim sari, uni yanada chuqurroq egallagim keladi. Ana shu istagim meni boshqa ilm dargohlariga ham yetak-lamoqda. Darslardan bo'sh vaqtimda ona tili, ingliz tili, tarix fanlarini chuqur o'rganish maqsadida o'quv mar-kaziga borib, bilimimni boyit-

Sayyora MO'MINOVA – Jizzax shahrida tug'ilgan. Yoshligidan o'qituvchi bo'lish orzusidagi bu qizaloq maktabda faqat a'lo baholarga o'qishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Hozirda O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi S.Sirojiddinov nomli akademik litseyda tahsil olmoqda.

Uning eng katta orzusi Jahon tillari universiteti talabasi bo'lish, shuning uchun ham ona tili va adabiyot, ingliz tili hamda tarix fanlarini chuqur o'rganmoqda.



yapman. O'quv markazi rah-bari Dilovar Rajabova ingliz tilidagi talaffuzimni eshitib, sendan yaxshi tarjimon chiqadi, deydilar. Ustozning ishonchidan ruhlanib, o'quv markazida ijtimoiy-gumanitar fanlarni ham chuqur o'r-ganishga kirishib ketdim.

– Bo'sh vaqtingizda qanday adabiyotlar o'qiy-siz?

– «O'tkan kunlar» va «Ufq» romanini qo'ldan

qo'ymay o'qiyman. Bundan tashqari, jahon adabiyoti namoyondalarining sara asarlarini, shu bilan birga, Adam Jekson asarlarini mutolaa qilaman.

– Kelajakdagi orzu-ingiz o'qituvchilik kasbini egallash ekan. Bu ezgu maq-sadingiz yo'lida sizga omad yor bo'lishini tilab qolamiz!

Suhbatdosh: Gulyuz
BAHODIR qizi

BIR SINFDAN IKKI SARDOR

Sardor degan nomga sazovor bo'lish hammaga ham nasib etavermaydi. Buning uchun, avvalo, o'quvchining bilimi va xulqi a'lo bo'lishi shart. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Zilola Atajanova, Hulkaroy Otajonova
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi 11-maktabning

8-«A» sinfida o'qishadi. Bugungi suhbatimiz bir sinfning ikki sardori haqida.

Terishqoq va izlanuvchan Zilola «Kamalak» bolalar tashkilotining viloyat bo'limi Sardorlar Kengashi «Meh-r-shafqat» yo'nalishi sardori vazifasini sidqidildan bajarmoqda.

Yo'nalish a'zolari bilan birgalikda keksalarga mehribonlik qilish, yolg'izlarga g'amxo'rlik ko'rsatish kabi ko'plab ezgu ishlarni amalga oshirmoqdalar.

– Yetakchilik zimmamga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu borada bor kuch-g'ayratimni ishga solaman, ibratli loyihalar tayyorlashda do'stlarim, ustozlarim menga yordamlashadilar. Maktabimizda puxta bilim olishimiz, tadbirlarni ko'ngildagidek o'tkazishimiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Axir O'zbekistonni ulkan imkoniyatlar mamlakati, deb bejizga aytishmaydi.

Harakatchan
Zilolaning orzulari ko'p.
Kelgusida ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi
degan sharaflari kasbni
egallab, yurtga halol xizmat
qilishdek ezgu niyatlari
amalga oshishini tilaymiz.



HULKAROY

O'zbekistonning gavhari deya ta'rif beriladigan ko'hna va navqiron Xorazmda tarixiy obidalarining sanog'i yo'q. Ularning har biri qadim tariximizdan so'zlaydi, an'analarimiz, urf-odatlarimizni eslatib turadi. Milliy qadriyatlarimizni o'rganish, tarixiy yodgorliklarni asrab-avaylash «Oltin meros»ning asosiy vazifalaridandir. O'quvchilar qalbiga, ong-u shuuriga oltin merosimizni singdirib borishda Hulkaroyning ham xizmatlari maqtovgva loyiq.

Harakatchan va bilimdon Hulkaroy «Kamalak» bolalar tashkilotining viloyat bo'limi Sardorlar Kengashi «Oltin meros» yo'nalishi sardori etib saylangandan so'ng, uning ishlari ko'paygandan ko'paydi. Sardor boshchiligidagi «Kamalak»-chilar ko'plab namunalari loyihalar muallifi bo'lishdi.

Tinib-tinchimas tengdoshingizning nazaridan hech bir tadbir chetda qolmaydi. Uni goh «Xorazm haqiqati» gazetasida, goh radioda, goh telekranda uchratish mumkin. Tadbir tafsilotlari viloyat ommaviy axborot vositalari orqali yoritib boriladi.

Ayni kunlarda jamoat ishlarida faol bo'lish bilan birga, aniq fanlarni ham puxta o'rganayotgan Hulkaroyga, aslo bo'shshang, faqat olg'a intiling, degimiz keladi.

Alisher ABDULLAJONOV

Olovuddin O'RIPOV olgan surat



Men «Tong yulduzi» o'qiyman.

QO'LINGIZDAN QO'YMAYSIZ

Men va sinfdoshlarim «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini muntazam o'qib boramiz. Undagi qiziqarli maqolalar, quvnoq xandalar, boshqotirma-yu skanvordlar e'tiborimizdan chetda qolmaydi.

Gazeta sahifalaridagi maqolalarni o'qib, beixtiyor men ham sevimli nashrimga maqola yozgim keldi.

Qo'limga qalam olar ekanman, avvalo, har bir teng-

doshimga, bu gazetaga obuna bo'ling, degim keladi. Chunki uni bir o'qisangiz, qo'lingizdan qo'ymaysiz.

Men ham sevimli nashrimga 2012-yil uchun obuna bo'ldim. Endi yil davomida uni miriqib o'qiyman.

Zulfiya ZOHIDOVA,
poytaxtimizdagi
219-maktabning
8-«A» sinf o'quvchisi

Kundalik hayotimizda har bir buyumning o'z o'rni bor. Ba'zilar hayotimiz uchun zarur, boshqalari esa hayotimiz, sog'ligimiz uchun zararli buyumlardir. Texnika kundan-kunga rivojlanib, inson uchun qulay bo'lgan yangi-yangi buyumlar ixtiro qilinyapti. Bularga kompyuter, uyali telefon, pleyer, naushniklarni misol qilib olishimiz mumkin. Xo'sh, bu buyumlar hayotimizda qanchalik muhim rol o'ynaydi?

Bugungi kunimizni uyali telefonlarsiz tasavvur eta olmaymiz. Katta-yu kichikda uyali telefon. Kompyuter, uyali telefon dan uzoq muddat tinimsiz foydalanilganda, uning inson hayoti uchun zararli tomonlari haqida ko'p marotaba so'z yuritiladi. Lekin uyali telefon naushnigining ham zararli ekanligini bilasizmi? Aslida naushnik uyali telefon dan kelayotgan radiatsiyani kamaytirar ekan. Lekin bu moslamadan noto'g'ri foydalanish oqibatida eshitish a'zolariga zarar yetar ekan. Bolaning qulog'i sog'lom bo'lganida, 10-15 detsibel tovushlarni payqay oladi. Aslida barglar to'kilayotganda 20, soat chiqillashida 30, suhbat jarayonida 30-35 detsibel tovush, uyali telefon naushnigida esa 120 detsibel tovush hosil bo'lar ekan.

90 detsibeldan baland bo'lgan



tovush eshitish a'zolari hamda asab tizimida joylashgan tolalarga salbiy ta'sir ko'rsatar ekan.

Bu asab tolalari 30 mingtani tashkil etib, juda baland tovushda 25 foizi halok bo'lar ekan. Tolalarning yarmidan ko'pi halok bo'lsa, inson kar bo'lib qolishi ham mumkin. Uyali telefon naushnigi orqali musiqa eshitishga mukasidan ketgan bolalarga baland ohangda gapirmasangiz, eshitmaydi. Qadrlari otanalar, agar farzandingizda shunday holatlarni sezsangiz, shifokorga murojaat qiling.

Farzandingizga biron buyum xarid qilib berishdan avval, uning foydali tomonini inobatga oling.

Gulchehra YUNUSOVA,
Farg'ona shahri

Tabiat – maftunkor. U ko'rk-u tarovati bilan insonni o'ziga rom etadi. Tabiat – buyuk ijodkor, inson qalbida Vatan tuyg'usini ham uyg'otadi. Uning go'zalliklaridan bahramand bo'lish naqadar baxt! Inson bunday baxtga qachon erishadi? Qachonki, tabiatni sevsa, avaylasa, ardoqlasa...

Biz tabiat go'zalliklaridan bahra olib yashaymiz. Ammo bu hali tabiatga muhabbat, degani emas. Inson tabiatdan faqat zavqlanishi emas, balki uni yaxshi tushunishi, ne'matlarini avaylab-asrashi lozim. Shunday ekan, qalbmizdagi insoniy tuyg'ular ham tabiatga bo'lgan mehri-mizdan oziqlanadi.

Tabiatni onalarimizga qiyoslaymiz, uni sevamiz, deya bong uramiz-u, lekin chin ma'noda sevib, asrab-avaylashdek xayrli ishga har doim ham bosh qo'shavermaymiz. Bugungi «texnika asri» deb atalayotgan tezkor zamonamizda inson bilan tabiat o'rtasidagi muvozanatga biroz putur yetayotgandek, nazarimda. Xalqimizning turmush farovonligi yaxshilanib borayotganini shahar va qishloqlarimiz ko'chalarida shaxsiy avtomashinalarning kundan-kunga ko'payib borayotganidan ham bilsa bo'ladi. Bu quvonarli hol, albatta. Lekin transport vositalaridan chiqayotgan zaharli tutun havoning musaffoligini buzayapti. Ayrim korxonalardan oqib chiqayotgan zaharli oqavalar esa suv havzalarini ifloslantiryapti. Bu o'z-o'zidan hayvonot olami va o'simliklar dunyosiga ofat keltirmoqda. Bunday noxush holatlarning oldini olish maqsadida, 1992-yil 9-dekabrda «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida» Qonun qabul qilindi va «Ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasi» ishlab chiqildi. 2008-yilda «O'zbekiston ekologik harakati» tuzildi. Bir so'z bilan aytganda, tabiat muhofazasiga jiddiy bel bog'landi. Lekin tabiat muhofazasiga mas'ul tashkilotlar bor ekan, deya xotirjamlikka berilmasligimiz kerak. Har birimiz tabiatning haqiqiy himoyachisiga aylansakgina, uni kelajak avlodlarga ham sofligicha yetkaza olamiz. Buning uchun esa o'simliklar va jonzorlarga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsati-

shimiz, tabiat zaxiralariidan oqilona foydalanishimiz, ularni ko'paytirish borasida qayg'urishimiz lozim. Ana shu fazilatlarini o'zimizda mujassam eta olsak, ekologik madaniyatli inson bo'lamiz.

Bunday inson bo'lish uchun esa ekologik tarbiyani bog'chadanoq, maktab partasidanoq boshlashimiz lozim.

Bugungi kunda yoshlarimizning barkamol inson bo'lib kamol topishlari yo'lida qayg'uryapmiz, mehnat qilyapmiz. Barkamol avlod deganda, ilmiy, bilimli, yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli, sog'lom, baquvvat yoshlarni tasavvur qilamiz. Bizga qolsa, ulardagi bu sifatlar qatorida, ekologik madaniyati, degan nisbat ham mujassam bo'lishini istardik.

Boy va ko'hna tariximizga nazar tashlasak, buyuk allomalarimiz ham tabiatga nisbatan o'ta e'tiborli, mehrlil bo'lganliklari, hayvonot va o'simliklar olamini e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlariga guvoh bo'lamiz. Muhammad Muso al-Xorazmiy risolalaridan birida odamlarni daryolarga mehrlil bo'lishga da'vat etadi.

Rivoyat qilishlaricha, buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy bir vaqtlar cho'lda chodir qurib turgan ekanlar. Ko'chish paytida kabutar chodirning ustiga ikkita tuxum qo'yganini ko'rib qolibdilar. Shunda bobomiz maxsus qorovul tayinlab: «Kabutarining bolalari tuxumni ochib, uchirma bo'lgandan so'ng chodirni yig'ishtirib, yo'limizdan ravona bo'ling», deb buyruq bergan ekanlar.

Demak, ona tabiatga mehrlil bo'lish bizga ajdodlardan meros ekan. Biz esa uni avlodlarga ham meros qoldiraylik!

ZAMONBEKA

HAYOTIM JILVASI

*Sen munis volida,
Sen g'amxo'r ota.
Olamning kengligi
Betimsol chiroq.*

*Sen issiq, sovug'in,
Shovullagan soy.
Nurafshon Quyoshim,
Ko'kda kulgan Oy.*

*Osmonda qalldiroq,
Tog'lar ko'chkisi.
O't-o'lan shoxiga,
Sachragan g'ubor.*

*Elimning rizq-ro'zi
Dala-tuz yuzin-
Yashilga bo'yagan
Ma'suma bahor.*

*Sendan kuch oladi,
Har bitta zarra.
Sendan quvvat olar,
Ko'm ko'k paxtazor.*

*Mevalar garq pishgan,
Kashoqlar sara.
Kokhul tanqidi
Oftobga qadib.*

*Sen mening erkamsan,
Dobar tabiat.
Sen e'zozlamoq
Har ko'ngilda bor.*

*Kun va kun yasharib,
Husni ochilib.
Jahonga yuz tutar,
Mastaqil diyor.*

*Qalam yonmoq bo'lib,
Qo'lim tilimga.
Tuproq'im qo'vda.
Surgan onamsan.*

*Hayotim jilvasi,
Umrim mazmuni.
Sen o'zing koshonam,
Nurli xonamsan.*

Ahmad HASAN



Bolajonlar, Siz uch ko'zli mavjudotlarni ko'rganmisiz? Ular faqat ertaklarda uchraydi, deya javob berishga biroz shoshilmang. Hozirgi kunda faqatgina Yangi Zellandiyada uchraydigan getteriya kaltakesagining uchta ko'zi bor ekan. Uning tashqi ko'rinishi 167 million yildan buyon aytarli jiddiy o'zgarishga uchramagan.

Fil qo'pol bo'lgani bilan ancha chaqqon va harakatchan jonivor. U soatiga 20 km. tezlik bilan yugura oladi. Chanqaganida, xartumiga 10 litrcha suvni tortib olib, so'ng og'ziga quyadi. Ularning to'dasiga odadida urg'ochi fil boshchilik qiladi. Umri tugaganini sezgan fil daryo yoki botqoqlikka boradi va cho'kib o'ladi. Shu sababli, filning skeletini topish qiyin.

Yer yuzidagi eng yebto'ymas jonzor nima ekanligini bilasizmi? Fil, deysizmi? Yanglishdingiz! Xoh ishonin, xoh ishonmang, bu ninachi ekan.

MEZBON MEHMONIM BO'LDI

Oyim tog'ora olib,
Ichiga non, qand solib
O'radi dasturxonga,
Xolam uchun-mehmonga.
Kiydilar go'zal libos,
Soch turmak o'ziga xos.
Chiqmasa-da hech sado,
Men ham «tarandim» darrov.
Ko'rib bo'ldilar hayron:
– Ha, qizim, sen qay tomon?
– Siz bilan birga borsam...
– Qila ko'rma orzu ham!
Diydiyoni boshladim,
Ko'zlarimni yoshladim.
Axir qolsam ja yomon,
Oh, unda izzat, ikrom.
Mezbon ko'rsatsa himmat,
Dasturxon to'la ne'mat.
O'ylab turganim chog'i,
Qiziq bo'ldi bu yog'i:
Kimdir eshikni qoqdi,
Onam eshikka boqdi.
Yugurib ochsam, xolam,
Quvonch berdi bir olam...
Mezbonim mehmon bo'ldi,
Xarxasham tamom bo'ldi.
Borolmasligim tayin,
Mayli, borarman keyin...

Iroda JA'FAROVA,
Jizzax shahridagi
1-umumta'lim
maktabining 9-sinf
o'quvchisi



MEN «TONG YULDUZI» O'QIYMAN!

Bilim olish istagim,
«Tong yulduzi» o'qiymen.
Kitob bilan do'st bo'lib,
Ertak, she'rlar to'qiymen.


Kitob, bilim manbai,
Tanlayman yoshimga mos.
Maroq bilan o'qiymen,
Kitobxonlik bizga xos.

Sarvarbek
SA'DULLAYEV,
Toshkentdagi
302-maktabning
3-«A» sinf
o'quvchisi

YANA QAYDA BOR?

Shildirab oqar,
Daryo, anhor, soy.
Mehr-la boqar,
Yulduz, Quyosh, Oy.
Bog'ida jo'shib,
Sayrar bulbullar.
Zavqni uyg'otar,
Lola-yu gullar.
Yurtim tabiati,
Qanchalar zo'r-a!
Yana qayda bor,
Bunday manzara?!

Sabrina HAMIDOVA,
Surxondaryo viloyati, Termiz
shahridagi 12-maktabning
8-sinf o'quvchisi



BAXT

Bug'doyzorlar ichidan
Yovvoyi tovuq uchdi.
Nigohim shovullagan,
Bug'doyzorlarga ko'chdi.

Onam, bu baxt, deydilar,
Uying bug'doyga to'lsin.
Bug'doy mo'l yurtimning,
Istiqloli bor bo'lsin!

Go'zal SALOHIDDINOVA,
Buxoro shahridagi
35-umumta'lim maktabining
7-«A» sinf o'quvchisi

TO'PTOSH

U qo'limda tosh,
Bu qo'limda tosh.
Kela qol o'rtoq,
O'ynaymiz to'ptosh.

Kaftimda otib,
Ortidan tutib.
O'ynayman shodon,
Navbatim kutib.

Go'yo kuf-suflab,
Olaman juftlab.
Sen ham juftlab ol,
O'rtoqjon, eplab.

Yutqazding, uzr,
Tez-tez o'ynab tur.
Chaqqonlik mashqi
Baxsh etar huzur.



Akaman-da, men ukamga
Qarashaman.
Muzqaymog'in bajon-u dil,
Yalashaman.

Ravshan ISOQOV

(Boshi o'tgan sonda)

PEPPI UZUNPAYPOQ

Astrid LINDGREN,
shved yozuvchisi

Qizcha goho katta ko'chaga tushib,
goho yo'l chetidagi asfalt yo'lakchaga
chiqib, irt'ishlab borardi. Tommi bilan
Annika u ko'zdan g'oyib bo'lguncha
qarab turishdi. Birozdan keyin Peppi
qaytib keldi. Endi u uyi tomonga orqasi
bilan yurib kelardi. Tommilarning uyi
oldida uch bolakay yuzma-yuz bo'lishdi.
Ular anchagacha bir-birlariga tikilib
turishdi. Oxiri Tommi chidolmay
so'radi:

– Hey qiz, sen nega qisqichbaqaga
o'xshab orqang bilan yurasan?

– Yuraman-da, – dedi Peppi. – Biz
ozod mamlakatda yashaymiz. Demak,
har kim ko'ngliga kelgan ishni qilishi
mumkin. U yog'ini so'rasang, misrliklar
ko'pincha menga o'xshab orqalari bilan
yurishadi, bilingmi?

– Qayoqdan bilasan? – dedi Annika
ishonqiraman. – Sen Misrda bo'lma-
gansan-ku...

Peppi irt'ib tushdi:

– Menmi? Men Misrda bo'lmagani-
mammi? Misr u yooqda tursin, dunyoning
yetti iqlimini kezib chiqqanman, ha! Men
bormagan yer, men suzmagan dengiz
qolmagan, bilsang! Aytaversam, ado
bo'lmaydi. Ishonmaysanmi? Masalan,

hindular xohlama ko'chada oyoqlarini
osmonga cho'zib, qo'llari bilan
yurishadi, desam gapimga ishonasanmi?

– Yolg'on aytyapsan! – dedi
Tommi. Annika uni quvvatladi:

– Ha, g'irt yolg'on!

– To'g'ri, sal oshirib yubordim, –
dedi Peppi yengil uh tortib, – axir nima
qilay, onajonim ko'p yil burun meni
tashlab, osmondagi farishtalarga
qo'shilib ketgan bo'lsa. Dadam olisda,
mendan juda olislardagi uchi-qiri yo'q
dengizda yurgan bo'lsa. Ba'zan ikki
og'iz yolg'onlab, o'zimni o'zim xursand
qilgim keladi-da, aybga qo'shmanglar...

Aka-singil, hechqisi yo'q, deb
Peppini ovutgan bo'lishdi. Peppi birdan
taklif qildi:

– Bolalar, yuringlar, biznikiga kirib,
tushlik qilamiz. Nima dedinglar?

– Mayli, – dedi Tommi. Aka-singil
bu qiz bilan tanishib olishga oshiqib
turishgan edi.

– Avvalo, men sizlarga janob
Nelsonni tanishtiray, – dedi Peppi va
maymunining biqiniga turti. Nelson
shlyapasini olib, Tommi bilan Annikaga
ta'zim qildi. Bolalar xursand bo'lib,
chapak chalib yuborishdi.

Peppi mehmonlariga uyini ko'rsatdi.
Uymisan – uy! Uzunchoq ayvon, dahliz,
oshxona va kattakon mehmonxona. Bu
xonaning burchagida komod deyladigan
shkaf turibdi. Gir aylana o'nlab katta-
kichik qutilar terib qo'yilgan edi.
Mehmonxonada boshqa bironta buyum
yo'q: na divan, na stul-stol, na kreslo.

Peppi shkaf tortmalarini birma-bir
ochib, yangi do'stlariga uzoq o'lka-
lardan yig'ib kelgan antiqa narsalarini
ko'rsata boshladi. Peppining xazinasi
rostdan ham zo'r edi. Ular orasida
noyob qushlarning tuxumlari, dengiz
chig'anoqlari, rang-barang toshchalar,
o'ymakor qilib yasalgan zargarlik qutilari,
okean tubidan topilgan turli taqinchoqlar,
ko'k, oqish, qizg'ish
marjonlar, qo'-
ying-chi, ming
xil g'aroyib bu-
yumlar bor edi.

– Bularni
qayerdan ol-
gansan? – deb
so'radi Tommi.

– Qayerdan
bo'lardi, dadam bilan
dunyo kezganimda
to'plaganman-da, –
javob berdi g'u-
rulanib Peppi.

– Vuy, mana-
vilarni, rosa ajoyib ekan!
– dedi Annikaning
ko'zlari o'ynab.

– Sizlarga yoqdimi? Unda, tanla-
ganlaringni olinglar, mendan esdalik, –
dedi Peppi.

Biroq, bolalar uyalib, jimgina
buyumlarga qarab turishdi. Keyin
Peppining o'zi Tommiga naqsh solingan
xanjar berdi. Annikaga esa chiroyli
qutichani cho'zdi. Qutichada ko'k tosh
o'rnatilgan kichik uzuk yotardi. Bolalar
rahmat aytib, o'rinaridan turishdi.

– Endi xayrlashamiz, ertaga yana
ko'rishguncha! – dedi Peppi va Nelson
bilan bolalarni hovligacha kuzatib
qo'ydi.

(Davomi bor)



Sa'dulla SIYOYEV tarjimai

Ustoz! Uning siymosi shunchalar mukammal, atvori shunchalar mufassalki, dunyoning bor zakovati-yu mehr-mahorati shu jussaga jo aylangandek, go'yo. Ustoz, u shunchalar buyukki, ta'rifini so'zlab, ado qilmoq dushvor.

Qadimda bir faylasuf: «Dunyoda odamlar meni yaxshi nom bilan yod etsinlar desang, faqat ezgu amallarga, ibratli ishlarga qo'l urgin», deb yozgan ekan. Ustozlarimiz aynan ana shunday ezgulikda betimsol insonlardir. Shuning uchun ham ularni doimo e'zozlaymiz, qadrlaymiz.

«Ustozim – qalb ardog'im» nomli yangi ruknimizda ana shu sharafti, shu bilan birga, o'ta mas'uliyatli kasb egalari haqida ocherklar, badiya va maqolalar berib borishni niyat qildik.

MA'RIFAT FIDOYISI



Xalqimiz azaldan ezgulik, ma'naviyat, ilm-u ma'rifatning shaydosi bo'lib kelgan. Bu yo'l zahmatkashlarini benihoya qadrlagan, sharaflagan.

Kitob tumanining Qaynar qishlog'ida joylashgan 28-maktabimiz rahbari Orzumurod Mahmanisoyev ana shunday qadrga, e'zoz-u ehtiromga loyiq insonlardan biri.

Qishlog'imizning Qipchoq mahallasi-dagi ziyoli oilalardan birida kamol topgan Orzumurod domla bolalikdanoq ustozlik kasbiga mehr qo'ydi. Bunga oiladagi sog'lom muhit, ilm-u urfonga e'tibor turtki bo'lgan bo'lsa, ajabmas.

Bu havas uni Samarqand pedagogika bilim yurtiga yetakladi. Uni muvaffaqiyatli tamomlagan ustoz o'z ish faoliyatini 28-umumta'lim maktabida ona tili va adabiyot fanidan saboq berishdan boshladi. Tez orada tashabbuskorligi, izlanuvchanligi, o'quvchilar qalbiga birdek yo'l topa olishi bilan hamkasblari hurmatini qozondi. Tuman, viloyat, respublika miqyosidagi tanlovlarda faol ishtirok etib, faxrli o'rnlarni egalladi. Tajribalarini hamkasb-

lari bilan o'rtoqlashib, ularning mehrini qozondi.

Mazkur bilim dargohiga rahbarlik qilish vazifasi ustozning zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshirdi. Maktabni eng yaxshi ta'lim maskanlari qatoriga qo'shish, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish samaradorligini oshirish, ularning fan olimpiadalarida qatnashib, yuqori o'rnlarni egallashlariga erishish kabi ibratli ishlarga astoydil bel bog'ladi...

Kitob tumani xalq ta'limi bo'limiga 12 yil mobaynida mudirlik qilib, hurmat, e'tibori yanada ortdi. Bu yillar mobaynida tumanda ta'lim sohasida katta ijobiy o'zgarishlar bo'y ko'rsatdi. Umumta'lim maktablari soni 67 tadan 90 taga yetdi. 5700 o'rinni 23 ta maktab binosi, 200 o'rinni 6 ta maktabgacha tarbiya muassasalari barpo etildi. Tuman maktablarida 400 dan ortiq fanlar chuqur o'rgatiladigan sinflar, 2 ta litsey-internat, 1 ta gimnaziya maktabi hamda bir qancha gimnaziya sinflari tashkil etildi va ilimga chanqoq o'quvchilarga o'z eshiklarini ochdi.

Keyinchalik ta'lim va fan xodimlari

kasaba uyushmasi tuman qo'mitasi rahbarligiga tayinlangan ustoz bu jabhada ham xayrli, ibratli ezgu amallarni davom ettirdi. Kam ta'minlangan, muhtoj oilalarga, nogironlarga, qariyalarga g'amxo'rlik qilib, ko'pning duosini oldi.

2006-yilda nafaqaga chiqqan Orzumurod domla qadrdon maktabiga qaytib, ikkinchi marotaba rahbar etib tayinlandi. Tumanda 20-o'rinda turgan bilim dargohimizning asosiy binosi u kishining sa'y-harakatlari bilan kapital ta'mirdan chiqdi hamda maktabimiz hududida davr talabiga to'la javob beradigan yana bir ko'rkam bino qad rostladi.

Hozirda maktabimizda fan va sport to'garaklari ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. O'quvchilarimiz fan olimpiadalarida va boshqa bir qator musobaqalarda yuqori natijalarni qo'lga kiritib, ustozlarimiz ishonchini oqlab kelishyapti.

Rahbarimizning jonkuyarligi, sa'y-harakatlari samarasi o'laroq maktabimiz 2009-yili tumanda 3-o'rinni, 2010-yili 2-o'rinni, Istiqlolimizning 20 yilligi arafasida esa faxrli 1-o'rinni band etdi.

O'z navbatida, ustozning fidokorona mehnatlari ham hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlanib kelinmoqda. «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi» unvoniga sazovor bo'ldi. Ko'ksini bezab turgan orden va medallari qatoriga Istiqlolning 20 yilligi arafasida «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 20 yil» esdalik ko'krak nishoni ham qo'shildi.

Uzoq yillik mehnat faoliyati davomida xalq xizmatida kamarbasta ko'plab shogirdlarni kamol toptirgan oqsoqol ustoz ibratli oila boshi hamdir. Sakkiz nafar farzandning mehribon, talabchan padari, o'nlab nabiralarning suyuqli bobosi.

Qalbi quyosh, bag'ri ummon ustoz Orzumurod Mahmanisoyev mehridan bahramand bo'lib kamol topayotgan o'g'il-qizlar safida men ham borligimdan baxtiyorman.

Yolqin ESHQUVVATOV,
Qashqadaryo viloyati,
Kitob tumanidagi

28-maktabning 9-«B» sinf o'quvchisi

MINING MUSIQA AKTABIM

Yurtimizda kelajak avlodga yaratilgan shart-sharoitlar bisyor. Fan, ta'lim sohasida, jumladan, san'atga, musiqa qiziqqan yoshlarimizning bugungi kundagi yutuqlarini sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Jahonning eng katta sahnalarida milliy cholg'ularimizdan yangragan kuy-qo'shiqlarimiz, ularga hamohang raqslarimiz xorijliklarning ham tahsiniga, olqishlariga sazovor bo'lmoqda. Ana shunday nufuzli xalqaro tanlovlarga tayyorgarlik esa musiqa maktablaridan boshlanadi.

Yurtimizdagi bunday ilm dargohlari qatoriga poytaxtimizda joylashgan 7-musiqa maktabini ham kiritishimiz mumkin. Biz yaqinda ana shu bilim maskanida mehmon bo'ldik. Bizni estrada xonandaligi yo'nalishi o'qituvchisi Svetlana Turabovna iliq qarshi oldilar. Ichkariga kirar ekanmiz, turli musiqa cholg'ularining ovozi qulog'imizga chalindi. Qaysidir xonadan kuylayotgan qizning ovozi keldi. Shunda Svetlana opa: «Qizlarimiz sizga kichkinagina konsert qo'yib berishmoqchi», dedilar. «Bu qizlarimizdan umidimiz katta. Ular orasida «Nihol» mukofotiga sazovor bo'lganlari ham bor. Maktab qoshida «Raduga» qo'shiqchi qizlar guruhi, dutorchi qizlar ansambli tashkil qilingan ekan. Qo'shiqchi qizlar bilan suhbatlashdik:

Sevinch MADUMAROVA, «Raduga» qo'shiqchi qizlar guruhi yakkaxonni:

– Men 4-sinfda o'qiyman. Oyijonim turli qo'shiqlarni xirgoyi qilib yurardilar. Ularning xirgoyilari menda kuylashga qiziqish uyg'otdi. Musiqa maktablari o'quvchilari orasida bo'lib o'tgan «Qo'shiqlar festivali»da ilk bor qo'shiq kuylaganimda, 6 yoshda edim. Ustozim Dilnoza Safarova bilan juda ko'p qo'shiqlar ustida ishlayapmiz. Shuningdek, Yunusobod tumanidagi Furqat nomli Madaniyat uyi qoshidagi «Yoshlik» estrada vokal ansambli xonandasiman. Yurtimizda har yili o'tkaziladigan «Yagonasan, muqaddas Vatan!» nomli qo'shiqlar ko'rik-tanlovida «Vatanim» nomli qo'shiq kuylab, birinchi saralash bosqichi g'olibi bo'ldim va Diplom bilan taqdirlandim.



Alina FAYZIYEVA, guruh a'zosi:

– Birgalikda kuylashning o'ziga yarasha qiyinchiligi bor. Biz bir-birimizni bir qarashdayoq tushunamiz. Menga o'zbek tilidagi qo'shiqlarni kuylash juda yoqadi. Qo'shiq kuylashdan tashqari, rasm chizishga ham qiziqaman. Bu yil maktabimizda «Rasmlar ko'rgazmasi»ni tashkil qilmoqchiman. 2010-yil 3-Xalqaro bolalar rasmlari ko'rgazmasida «Qishloqda kuz» nomli rasmim oltin medal va Diplom bilan taqdirlandi. Yana rasmlarim Chexiyada o'tkazilgan «Liditskaya roza» bolalar rasmlari tanlovida oltin medalga sazovor bo'ldi.



Dilso'z ZOHIDOVA

– Men an'anaviy xonandalik bilan birgalikda, o'z zimni estrada yo'nalishida ham sinab ko'rmoqchiman. Ustozim Dildora opa Nig'monovadan hozir aynan shu yo'nalishda kuylashning sir-asrorlarini o'rganayapman.

Qiz bolaga qirq hunar ham kamlik qiladi, deyishadi. Bo'sh vaqtlarimda yangi liboslar dizaynini yaratish, rasm chizish bilan shug'ullanaman. Ba'zan she'rilar ham yozib turaman.

Husnigul QAHHOROVA, estrada yo'nalishi bo'yicha 3-sinf, fortepyano bo'yicha 4-sinf o'quvchisi:

– Men ham tengdoshlarim qatori tanlovlarda qatnashib turaman. «O'zbekiston – vatanim manim» ko'rik-tanlovida qatnashib, shahar bosqichida 3-o'rinni olishga muvaffaq bo'ldim. «Kelajak ovozi» ko'rik-tanlovida ham iqtidorimni sinab ko'rdim. Hozirda tibbiyot litseyida tahsil olayapman. Ammo musiqa maktabiga har kuni kelib, qo'shiq kuylashni kanda qilmayman.



Ozoda TURSUNBOYEVA suhbatlashdi.
Zuhra MUHSIMOVA olgan suratlari



Uch chaqirim uzoqqa,
Sayr etib kelmoqqa.
Jardan qo'shni o'tloqqa,
Yo'lga chiqdi toshbaqa.

Erkalab uni zamin,
Yuzga surtar izlarin.
Qadam tashlab shoshmasdan,
Charchadi qir oshmasdan.

Toshkosi og'irimi,
Yo yo'l juda taqirmi?
Birpas yurib, olsa dam
Ayting, o'g'il-qizginam:

Necha kunda toshbaqa,
Yetib borar o'tloqqa?



Juma USMONOV,
Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on
tumanidagi 22-umumta'lim
maktabi o'qituvchisi

YAXSHI



Aziz kitobsevar o'quvchilar! Diqqatingizga «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan nashr etilgan yangi kitoblarni havola etmoqchimiz. Jahon adabiyoti durdonalari ruknidagi «BOLALAR BOG'I» deb nomlangan bu kitobni Feruza Hasanova nashrga tayyorlagan. Adadi 3000 nusxani tashkil etgan kitobchada jahon adabiyoti namunalari o'zbek tiliga tarjima qilingan bolalar uchun mo'ljallangan hikoya va ertaklar jamlangan.

KITOBBLAR

Unda Amerika, Angliya, Afrika, Yaponiya, Daniya yozuvchilari asarlari hamda koreys, arab xalq ertaklarini o'qishingiz mumkin.

Frits VYURTLE qalamiga mansub «ANDIJON SHAHZODASI» sarguzasht qissasini olmon tilidan Yanglish EGAMOVA tarjima qilgan. Adadi 2000 nusxadan iborat ushbu sarguzasht qissaga «Boburnoma»dagi voqealar asos qilib olingan. Unda 12 yoshli Zahiriddin Muhammad Boburning otasi Umarshayx Mirzo vafotidan keyin Farg'ona viloyati taxtiga o'tirgan paytdagi jang-u jadallarda kechgan hayoti bayon etilgan.

Keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan qissada yozuvchi voqea-hodisalarni kitobxonni qiziq-tiradigan til va uslubda tasvirlagan.



BOR

DILOROM tayyorladi

DAM OLISH BEKATI

TOPISHMOQLAR



1. Iste'molda yoz-u
qish,
Qurutsang bo'lar
kishmish.
Yashnatadi
ko'zingni,
Har shingili ...ni

2. Ko'p yillik buta,
Bo'ylari o'rta.
Xumdek mevasi,
Yoqar mazasi.
Po'stlog'i qalin,
Don to'la tugun.
Chanqog'ing qonar,
Shimirsang ...




3. Po'sti qalin,
Sirti tosh.
Toshni yorsang,
Yog'li osh ...

4. O'sar yerim tog'u tosh,
Pistaga nomim uyqash.
Sir saqlashni
bilmayman,
Hammadan
tez
gullayman ...



Dilfuza KAMOLJONOVA

«BOLA HUQUQLARI BOLALAR NIGOHIDA» TANLOVIGA



SAVOLLAR:

1. Majburiyatni o'z vaqtida bajarmagani uchun beriladigan sanksiya.
2. Sudlov tashkilotlarining faoliyatini bildiruvchi keng ma'nodagi huquqiy tushuncha.
3. Vakolatli organlarning tashkiliy-huquqiy faoliyat shakli, majlis, kengash.
4. Huquqbuzarga nisbatan davlat tomonidan qo'llaniladigan ehtiyot chorasi.
5. Yordam, davlat byudjeti hisobidan mahalliy hokimiyat organlari, yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan yordam.
6. Bitim, ko'p tomonlama xalqaro shartnoma turlaridan biri.
7. Qimmatbaho qog'ozning turi bo'lib, uning egasi ilgari belgilangan miqdordlarda yillik daromad olib turadi.
8. Bayonot, daromadi va boyliklari haqida soliq to'lashga tortilgan shaxsning arizasi.
9. Jabr-zulmdan, qaramlikdan, xurofotdan qutulish, teng huquqlikka erishish, ozodlikka chiqish.

Kumush ABDURAZZOQOVA,
Toshkent viloyati, Bekobod tumani



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jam'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lg'in HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Rassom:
Feruza MATYOQUBOV
Navbatchi:
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Svetlana INOMOVA,
Odina JAMOLDINOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 31742
Buyurtma N: J 2980